

BADIY ASARLARDA ESKIRGAN VA YANGI SO‘ZLARNING ISHLATILISHI VA AHAMIYATI

Zayniddinova Sevinch Davlatovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675317>

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy asarlarda eskirgan va yangi so‘zlarning qo‘llanishi, ularning uslubiy xususiyatlari hamda badiiy matndagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlaridagi tarixiy muhitni aks ettiruvchi eskirgan so‘zlar, shuningdek “Jimjitlik” hamda “Nur qidirib” kabi asarlarda uchraydigan zamonaviy leksik birliklar misolida masala yoritiladi. Maqolada bu qatlam so‘zlarning obraz yaratish, davr ruhini ifodalash va asarning ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: leksik qatlam, badiiy asar, istorizm, arxaizm, neologizm, eskirgan so‘zlar, lingvopoetik tahlil.

Badiiy asar til boyligi va uslubiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Unda qo‘llaniladigan har bir so‘z muallifning maqsadi, davr ruhi va qahramonlar xarakterini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, eskirgan so‘zlar va yangi so‘zlarning o‘rinli ishlatilishi asarning ta’sirchanligini oshiradi. Eskirgan so‘zlar tarixiy muhitni jonlantirsa, yangi so‘zlar zamonaviy hayot manzarasini ifodalaydi. Shu bois badiiy adabiyotda bu ikki qatlam so‘zlarning qo‘llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, muallif eskirgan va yangi so‘zlarni o‘rinli ishlatish orqali o‘zining til imkoniyatlaridan samarali foydalanganini ko‘rsatadi.

Bu esa o‘quvchiga tilimizning boyligi va rang-barangligini his qilish imkonini beradi.

Shuningdek, badiiy asarlarda bunday so‘zlardan foydalanish madaniy va tarixiy merosni saqlash uchun ham xizmat qiladi. Eskirgan so‘zlar orqali xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, an’analari va tarixiy tafakkuri yangi avlodlarga yetkazilsa, yangi so‘zlar esa zamonaviy hayot tarzi va tafakkurini aks ettirib, adabiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Eskirgan so‘zlar – kundalik muloqotda ko‘p qo‘llanilmaydigan, ammo tilning lug‘atida saqlanib qolgan va keng ommaga tushunarli bo‘lgan, ma’lum davrlarda qo‘llangan, lekin hozirgi kunda foydalanilmaydigan so‘zlar. Tilning leksik sathidagi eskirish unda leksik istorizmlar va leksik arxaizmlarni yuzaga keltiradi. Leksik istorizmlar o‘tmish voqeligi bolgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Istoriizmlar, odatda, uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz beradigan eskirishning mahsuli boladi.

Biz buni Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun “O‘tkan kunlar” asaridan keltirilgan ushbu parchani oladigan bo‘lsak: “*Qutidorlar, beklar, amaldorlar xalqni ezar edilar.*”

Qutidor, bek, amaldor kabi so‘zlar — bugungi kundalik hayotda deyarli ishlatilmaydi.

Ular o‘sha davrning ijtimoiy tuzilmasini (yer egalari, boylar, hokimlar) ifodalaydi. Bu so‘zlar orqali o‘quvchi XIX asr Buxoro va Toshkent voqealari, ijtimoiy hayoti bilan tanishadi. “*Xon saroyidan yuborilgan choparlar xabar olib keldilar*”. Bu joyda xon, saroy, chopar kabi so‘zlar ishlatilgan. Xon — tarixiy o‘zbek jamiyatida oliy hukmdor unvoni bo‘lgan. Bugungi kunda bu atama siyosiy hayotda qo‘llanilmaydi, tarixiy kontekstda saqlangan.

Saroy — hukmdorning qarorgohi. Endi esa “saroy” so‘zi boshqa ma’nolarga ega bo‘lgan (masalan, madaniyat saroyi). Chopar — tezda xabar yetkazuvchi elchi yoki posbon bo‘lgan.

Hozirda bu soʻz eskirgan, uning oʻrnini zamonaviy soʻzlar (“pochta xodimi”) egallagan.

Bu soʻzlar jamlanib, oʻsha zamon boshqaruv tuzumi va axborot almashish tartibi qanday boʻlganini jonli tasvirlab beradi. Oʻquvchi shu orqali oʻtmishdagi ijtimoiy tizimni yaxshiroq tasavvur qiladi. “Mehrobdan chayon” asarida ham xuddi shunday ruhdagi soʻzlarni koʻrishimiz mumkin. *“Domla Muslihiddin har kuni madrasada saboq berar edi”*. Madrasa — oʻtmishda diniy va dunyoviy bilim berilgan oʻquv muassasasi. Bugun ham bu soʻzlar mavjud, lekin ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati oʻzgargan. Zamonaviy maktablar va universitetlar ularning oʻrnini egallagan. *“Qozilar mahkamasida ish koʻrilar edi”*. Qozilar mahkamasi — shariat asosida ish yurituvchi sud organi. Bu istorizmlar orqali asarda oʻsha davrda taʼlim va diniy hayot qanchalik muhim boʻlganini bilamiz. Shuningdek, taʼlim tizimining shakli va mazmuni qanday boʻlgani haqida tasavvur hosil qilamiz. Istorizmlar romanga tabiiylik, tarixiy asos va maʼnaviy chuqurlik bergan. Oʻquvchi faqat syujetni emas, balki oʻsha davr ruhiyatini ham his qiladi. Leksik arxaizmlar hozirgi paytda mavjud boʻlgan voqelikning eskirgan nomi yoki aksincha hozirgi tilda mavjud boʻlgan leksemaning eskirgan maʼnosi hisoblanadi. Biz buni “Mehrobdan chayon” asari orqali koʻrib chiqishimiz mumkin. *“Uzoqdan kelgan musofir eshikdan kirar ekan, yuz-koʻzidan gʻam-alam va koʻnglidan sabodek esayotgan armonlar sezilib, uni qarshi olganlar eski zamon odatlariga koʻra mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olishdi, hatto qariyalar uning boshiga duo va duogoʻy soʻzlar yogʻdirdilar”*. Bu gapda sabo soʻzi arxaizm soʻz hisoblanadi va hozirgi muqobili shamol deb yuritiladi. Bunday soʻzlar matnga badiiylik va joziba berish, yaʼni matnni ohangdor va taʼsirchan koʻrsatish uchun foydalaniladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning gʻazallaridan ham bir necha misollar keltirishimiz mumkin.

“Necha ming sabo erur, har lahza bir navbahor oʻrtar”.

Tahlil qiladigan boʻlsak, bu baytda sabo soʻzi ishlatilgan. Sabo — qadimgi oʻzbek tilida shamol, yengil esadigan bahor shabadasi degan maʼnoda keladi. Bugungi kunda odamlar koʻproq shamol yoki shabada soʻzini ishlatadi, sabo esa adabiy va qadimiy ifoda sifatida qolgan — yaʼni bu arxaizm hisoblanadi. Navoiy bu yerda saboni faqat shamol emas, balki yangilanish va goʻzallik olib keluvchi kuch sifatida tasvirlaydi. “Necha ming sabo” — yaʼni har lahzada juda koʻp yengil, bahoriy shabada esib turadi va har bir nafasda dunyo yangilanadi, deya badiiy tasvir beradi.

“Dudoqi gulruxingdin shamʼi dil raqs aylagay,

Har nafas olamga tarqilsa kerak atri sabo”.

Dudoq soʻzi qadim adabiy tilda keng ishlatilgan, hozir esa koʻproq lab deyishadi, shuning uchun dudoq bu yerda arxaizm hisoblanadi. Shuningdek, sabo soʻzi ham arxaizm soʻz sifatida kelishini koʻrishimiz mumkin. Baytda tasvir sanʼati kuchli: dudoqning goʻzalligi yurakni hayajonga soladi va sabo (shamol) orqali uning hidini butun olam sezadi, -deyiladi. Navoiy dudoq soʻzini ishlatib, sevgilining nozikligi va goʻzalligini yanada nafisroq, xushmanzara tasvirlagan. Dudoq bu yerda shunchaki jism emas, balki yurakka nur va hayajon beruvchi qudrat sifatida koʻrsatilgan. Navoiy oʻz asarlarida qadimiy tilni ishlatish orqali oʻsha davrning ruhini, madaniyatini va tilini saqlamoqchi boʻlgan. Arxaizm soʻzlar asarining tarixiy muhitini va milliy xususiyatlarini yanada ravshanroq koʻrsatadi. Navoiy arxaizm soʻzlarni nafaqat tarixiy va madaniy maqsadlar uchun, balki oʻquvchiga estetik, hissiy taʼsir oʻtkazish uchun ham ishlatgan. Uning soʻzlari nozik, rang-barang va goʻzal ifodalarga ega boʻlib, oʻquvchini oʻziga jalb etishini koʻrishimiz mumkin.

Yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan, yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar neologizm yoki yangi soʻzlar deyiladi.

Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi, umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Har qanday neologizm dastlab ayrim shaxs nutqida voqe bo'ladi, bunday paytda u individual neologizm sanaladi. Badiiy asarlarda asosan individual nutq neologizmi badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Masalan Said Ahmadning "Jimjitlik" romanidan misol keltirishimiz mumkin.

"Olib ketaver, jo'ram. Qirq yilgi uzangidosh jo'ramsan. Olib ketaver. Qulunlagandan keyin yo'ling tushsa tashlab ketarsan."

Bu gapda uzangidosh leksemi "birga chavandozlik qilgan do'st" ma'nosida ishlatilgan.

Bunday leksik qo'llash Said Ahmadning mazkur asar tilidagi "ixtiro" bo'lib, u faqat shu asar matnidagina individual nutq neologizmi sifatida voqelangan. Shuningdek, Tohir Malik asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. *"Bek akang ko'rinmay qoldi-ku?-dedi, kesakpolvon labiga sigaret qistirib. Humkalla cho'ntagidan chaqqonlik bilan yoqqich olib unga olov tutdi..."* Bu gapda yoqqich so'zi ruscha zajigalka so'zining kalkasi tarzida qo'llangan, uni asar muallifi (Tohir Malik) o'zi yasagan va o'zi individual nutq neologizmi sifatida birinchi bo'lib ishlatgan.

Demak, bu so'z hozircha umumtil neologizmi darajasiga ko'tarilmagan, chunki u nutq ixtiyorida til ixtiyoriga o'tmagan. Ba'zan ancha ilgari yaratilgan individual nutq neologizmlari ham umumnutq neologizmiga aylanmay qolib ketadi. Buni atoqli yozuvchi Abdulhamid Cho'lpon tomonidan o'z vaqtida yasalgan ozitqi so'zi misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi: *"...Har bir ona suti og'zidan ketmagan tentak gimnazistni bir ozitqi deb bilardi"*. Abdulhamid Cho'lpon bu gapdagi ozitqi so'zini achitqi, qichitqi tipidagi yasalma modeliga (qolipiga) suyanib yasagan va uni "yo'ldan ozdiruvchi" ma'nosida qo'llagan.

Bu nutqiy parchada ozitqi so'zining yangi lisoniy-badiiy topildiqlik sifatida alohida estetik qimmat kasb etganligi shubhasiz, ammo u shu matndan tashqariga, umumtil doirasiga chiqqan emas, demak, umumtil neologizmi holatiga o'tmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holat Oybekning "Nur qidirib" povestidan keltirilgan quyidagi gapda ham kuzatiladi: *"... chorrahada, balandlikda qizil sallali, qisqa ishtonli qopqora regulirovshchik-yo'lbon qo'llarini ohangdor o'ynatib, ko'cha harakatini boshqaradi."*

Bu yerda individual neologizm- regulirovshchik —yo'lbon sanaladi. Yozuvchi yangi va o'ziga xos tasvirlar yaratish uchun neologizmlar ishlatadi. Bu so'zlar asarga yangi ma'no, rang-baranglik va zamonaviylik kiritadi, shuningdek, o'quvchiga qiziqarli va yangicha tajriba taqdim etadi. Shuningdek, yangi so'zlar adabiy tilda yangilanishni va rivojlanishni ta'minlaydi.

Neologizmlar adabiyotning dinamikligini ko'rsatadi va zamonaviy tilga yangi ifodalar kiritadi, shu bilan adabiy tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rishimiz mumkin.

Yozuvchi neologizmlar yordamida o'zining badiiy uslubini yaratadi. Yangi so'zlar asarga o'ziga xos ohang va rang-baranglik berishi mumkin.

Bu shuningdek, o'quvchiga yozuvchining tiliga bo'lgan ehtiros va ijodkorligini namoyon etadi. Eskirgan va yangi so'zlar tilni yanada boyitib, uni jonlantiradi. Ular tilning chuqurligini va ma'naviy boyligini ko'rsatadi. Yangi so'zlar esa zamon bilan birga rivojlanib, tilga yangilik va rang-baranglik kiritadi. Ular bugungi dunyoqarashni, ijtimoiy va ilmiy yutuqlarni ifodalash imkonini beradi.

Har ikkisi birgalikda, adabiyotga hayotiylik va yangilanish olib keladi, yozuvchilarga o'z fikrlarini o'ziga xos tarzda va samimiy ifodalash imkoniyatini yaratadi. Ular asarga tarixiy chuqurlik, nostalji va adabiy boylik kiritadi. Bu ikkalasining muvozanati asarni yanada to'liq, go'zal va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoʻldoshev Marufjon. “Badiiy matnning lisoniy tahlili”. — Toshkent, 2010.
2. Shams Abduqodir. “Oʻzbek adabiy tilining tarixi”. — Toshkent: Fan, 1990.
3. Yoʻldoshev Marufjon. “Choʻlpon soʻzining sirlari”. — Toshkent: Maʼnaviyat, 2002.
4. Qodiriy, Abdulla. “Oʻtkan kunlar”. — Toshkent: Sharq, 1948.
5. Qodiriy, Abdulla. “Mehrobdan chayon”. — Toshkent: Sharq, 1957.
6. Ahmad, Said. “Jimjitlik”. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1975.
7. Hoshimov, Oʻtkir. “Nur qidirib”. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1980.